

# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 17-avgust, № 166 (8789) Shanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

## IJTIMOIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING BARQARORLIGINI TA’MINLASH, SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ijrosini samarali ta’minlash**, norma ijodkorligi jarayonida **“aqlli tartibga solish”** usullaridan keng foydalanish hamda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish barqarorligini ta’minlash, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining tartibga solish ta’sirini baholash hamda qonunchilik hujjatlari natijadorligini monitoring qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini rivojlantirish maqsadida:

1. Adliya vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda **1 860 ta** qonunchilik hujjatlari ekspertizadan o‘tkazilganligi va shundan **243 ta** hujjatda **350 ta o‘z ahamiyatini yo‘qotgan, amalga oshirish mexanizmlari bilan ta’minlanmagan normalar** va **huquqiy bo‘shliqlar** aniqlanganligi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga **moliya, kredit, bank, tadbirkorlik faoliyati, ijtimoiy himoya, tashqi iqtisodiy aloqalar** hamda **bojxona ishi** sohalarida qonunchilikni takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar **1-ilovaga** muvofiq;

Qonunchilik hujjatlaridagi **o‘z ahamiyatini yo‘qotgan, amalga oshirish mexanizmlari bilan ta’minlanmagan normalar** va **huquqiy bo‘shliqlarni** bartaraf etish bo‘yicha **“Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **o‘z ahamiyatini yo‘qotgan** ayrim hujjatlari **3-ilovaga** muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

Vazirlar Mahkamasi **bir oy muddatda** qonunchilik hujjatlaridagi o‘z **ahamiyatini yo‘qotgan** va **amalga oshirish mexanizmlari bilan ta’minlanmagan** normalar, huquqiy bo‘shliqlar hamda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo‘yicha **“Yo‘l xaritasi”**ni tasdiqlasin.

2. **2024-yil 1-oktabrdan** boshlab, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tartibga solish ta’sirini baholashning (keyingi o‘rinlarda – baholash) **soddalashtirilgan** va **kengaytirilgan** tartibi joriy qilinsin. Bunda:

a) **soddalashtirilgan** tartibda loyiha ishlab chiqilishidan oldin quyidagi **tartibga solish vositalari baholanadi** va baholash natijalari yuzasidan Adliya vazirligining dastlabki xulosasi olinadi:

jismoniy va yuridik shaxslarga **majburiyat, talab, taqiq, javobgarlik yoki boshqa cheklovlarni belgilash** (keyingi o‘rinlarda – talablar), **ularni o‘zgartirish** yoxud talablarga **rioya qilishni** yoki **ularni bajarishni ta’minlash bilan bog‘liq ta’sir choralarini** qo‘llash;

tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilayotgan **imtiyoz, preferensiya va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning boshqa turlarini** joriy qilish, ularning ta’sir doirasini kengaytirish yoki qisqartirish;

b) **kengaytirilgan** tartibda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari baholanadi:

soddalashtirilgan baholash natijalari bo‘yicha **iqtisodiy, ijtimoiy va atrof-muhitga ta’siri darajasi yuqori deb topilgan** loyihalar;

Oliy Majlis palatalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari hamda baholash sohasidagi vakolatli organlar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlarning taklifiga ko‘ra kengaytirilgan baholashdan o‘tkazilishi lozim deb topilgan loyihalar.

Adliya vazirligi **ikki oy** muddatda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tartibga solish ta’sirini soddalashtirilgan va kengaytirilgan baholashdan o‘tkazish uslubiyotini tasdiqlasin.

3. Amaldagi qonunchilik hujjatlarini qo‘llash samaradorligini tahlil qilish, baholash faoliyatini **kompleks tashkil etish** va bu borada joriy etilgan institutlarning **o‘zaro bog‘liqligi** hamda **ta’sirchanligini oshirish** maqsadida **2025-yildan boshlab** quyidagilarni nazarda tutuvchi tartib joriy etilsin:

**a)** ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, huquqiy normalarni belgilovchi **normativ-huquqiy hujjat kuchga kirgandan so‘ng**:

normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish **maqsadlariga erishilishini tahlil qilish,** uning **ijrosini ta’minlash** hamda **baholash uchun statistik ma’lumotlarni yig‘ish** maqsadida **har yili** mas’ul davlat organi tomonidan **monitoring olib boriladi**;

normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish **maqsadlariga erishilganligi** va **samaradorligini** aniqlash maqsadida qonunosti hujjatlari **har uch yilda** mas’ul davlat organi tomonidan baholashdan o‘tkaziladi;

qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatda uning monitoringi va baholashdan o‘tkazilishiga mas’ul bo‘lgan davlat organi ko‘rsatiladi;

**(Davomi 2-betda).**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining
ellik beshinchi yalpi majlisi to‘g‘risida

## AXBOROT

**2024-yil 16-avgust kuni Toshkent shahrida Oliy Majlis Senati majlislar zalida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik beshinchi yalpi majlisi o‘z ishini davom ettirdi.**

Unda Senat, hukumat a’zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a’zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o‘tkazilgan yalpi majlisni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning “YouTube” tarmog‘idagi sahifasi orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritib borildi.

Senatorlar tomonidan dastlab “Xalqaro mehnat tashkilotining To‘liqsiz ish vaqti sharoitlarida ishlash to‘g‘risidagi 175-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1994-yil 24-iyun) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun ko‘rib chiqildi.



Ushbu Konvensiya jahonning 20 ta davlati tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiyaning maqsadi to‘liqsiz ish vaqti sharoitida ishlovchi ishchilarning mehnat sharoitlarini, ularni mehnatga haq to‘lash va ijtimoiy ta’minot sohasidagi kamsitishdan himoya qilishni ta’minlashdir.

➔ 2



YANGI RUKN:

Mustaqillik – taqdirimizda

## ISTIQLOL QUYOSHI HECH QACHON SO‘NMAYDI!

*Inson nima uchun qorong‘ilikdan, zulmatdan, tundan qochadi, hamisha nurga, oydin va yorug‘ kunlarga intilib yashaydi? Chunki yorug‘likda baxt, halovat, qalbga taskin bor. Uning zamirida bunyodkorlik, go‘zal umid va shirin orzu-niyatlar ro‘yobi mujassam.*

Xo‘sh, ayting-chi, kimning nurdan yiroq, zulmat ichra sarosar, hatto xayol hududlaridan ham naridagi qo‘rquv, hadiksirash, tashvish va armonlar bilan yashagisi keladi?! Hech kimning!

Bu fikrlarni bejiz keltirmadik. Millatimiz 130-yildan ortiq vaqt davomida ana shunday rutubat va zulumot iskanjasida, yorug‘ kunlarni kutib, hatto uni orzu qilishga ham qo‘rqib yashadi.

Shukrki, bundan 33 yil muqaddam qora tunlar, hayiqish va qo‘rquvlarga barham berildi. Yurtimizda hurlik va baxtiyorlikning muazzam tongi otdi. Umrimiz, yuragimiz va ruhiyatimizda nur balqidi. Jonajon Vatanimiz nihoyat o‘zi istagan nurafshon qismat, porloq hayotga erishdi. Oydin kelajak sari qo‘rqmay-netmay odimlay boshladi.

O‘tgan yillar mobaynida istiqlol bilan birga biz ham o‘sib-ulg‘aydik, yoshimizga yosh qo‘shildi, dunyoqarashimizda, ong-shuurimizda, turmush tarzimizda juda katta o‘zgarishlar yuz berdi.

Xalqimiz tarixining buyuk va o‘chmas sahifasini boshlab bergan 1991-yilning 1-sentabrida dunyoga kelgan vatandoshlarimiz yangicha sharoitda, erkinlik, hurlik bag‘rida o‘sib-ulg‘aydilar. Millatning kelajagi, xalqimizning yanada farovon hayoti, Vatanimizning shon-shavkati qalbi shijoat, qat’iyat, zamonaviy bilimlarni egallashga bo‘lgan ishtiyoq bilan to‘la shu yoshlarga bog‘liq ekanini ular yaxshi tushunadi va bu bilan faxrlanadilar ham.

Biz bugun oldimizda turgan yangi ulug‘vor vazifalar to‘g‘risida o‘ylar ekanmiz, beixtiyor ko‘z oldimizda istiqlol davrida erishgan g‘alabalarimiz, ularni qanday qo‘lga kiritganimiz, kurashlarga to‘la umrimiz, hayajonli lahzalar gavdalanadi. Bu davrning kurashlarga to‘la har bir yili, har kuni, hech mubolag‘asiz, millat tarixiga, mangulikka daxldor bo‘lib qoldi. O‘zining necha ming yillik ko‘hna tarixida ne-ne voqealarni boshidan kechirgan xalqimiz uchun O‘zbekiston mustaqilligi, hayotimizni, ong-shuurimizni tubdan o‘zgartirgan bu ulug‘ sana ko‘p yillar, zamonlar o‘tsa-da, o‘z ahamiyati, qadr-qimmati va mohiyatini yo‘qotmaydigan, tom ma’noda olamshumul voqea bo‘lib abadiy saqlanib qolishi muqarrar.

Yillar o‘tadi, Yurtboshimiz rahbarligi va tashabbuslari bilan boshlangan yangi O‘zbekistondagi buyuk o‘zgarishlar ortga qaytmas tarzda davom etadi. Shu narsa aniqki, istiqlolimizning keyingi yetti yilidagi natijalar mustahkam ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy poydevor sifatida yoshlarni yanada muhim, salmoqli yutuq va g‘alabalar sari ilhomlantirmoqda.

Kelgusi avlod millatimizning mustaqillikkacha bo‘lgan g‘urbatli tarixini, bu yo‘lda chekilgan azob-uqubatlar, og‘ir yo‘qotishlarni, berilgan qurbonlarni, haqorat va xo‘rliklarni, ota-bobolarimiz bu azoblarga qanday dosh berganlarini, erkin va ozod hayot orzusi ular qalbida hech qachon so‘nmaganini qanchalar qiziqish bilan o‘rgansalar, yangi O‘zbekistonni qurish yo‘lida ham qanday qarshiliklarga duch kelganimiz, moddiy va ma’naviy xurujlarni qanday bartaraf etganimiz, bu jarayon oson bo‘lmaganini, istiqlolni har jihatdan mustahkamlash, uni yomon ko‘zlardan, balo-qazolardan asrab-avaylash, mamlakatimizda tinchlik-totuvlikka, ahil-inoqlikka erishish o‘ta qiyin va murakkab kechganini, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida eng og‘ir muammolarni ish ko‘zini bilib, sabr-bardosh, aql-idrok bilan yengib o‘tganimizni ham shunday e’tibor va havas bilan o‘rganadi.

Bunday deyishga hamma asoslar bor. O‘zbekiston juda qisqa davr ichida mohiyatan uch emas, balki besh-olti o‘n yillikka teng keladigan mustaqil taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Biz uchun eng muhim vazifa – ortga qaytmas islohotlarni davom ettirish, odamlarda, ayniqsa, yoshlarda ertangi istiqbol kunlariga ishonchni susaytirmaslik, butun mamlakatda tadbirkorlik va tashabbuskorlikni kuchaytirish, odamlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, jahon hamjamiyati sari dadil intilish. Bu maqsad mamlakatimizning dunyo maydonidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

Bu haqda uzoq gapirish mumkin. Dil so‘zlarim, mulohazalarim, mushohadalarim, xulosalarim bisyor. Shu bilan birga, ko‘nglimda bir hadik ham borki, to bugungi yorug‘ kunlar qadriga yetmas, uning boqiyligini asrashga butun borlig‘imiz bilan intilmas ekanmiz, biz botinan haligacha zulmatda yashayotgan bo‘lamiz. Boqimandalik, o‘zibo‘larchilik, loqaydlik, o‘z taqdirini Vatan taqdiriga daxldor his qilmaslik erishayotgan barcha yutuqlarimizning zavoliga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, har inson qalbida, avvalo, shukronalik, bugungi dorilamon kunlardan rozilik, kelajakka yuksak ishonch va fidoyilik barq ursa, shubhasiz, eng yuksak marralar bizniki bo‘lajak. Hurlik tongi abadiy otaveradi. Istiqlol quyoshi mangu so‘nmaydi!



**Oqil SALIMOV,**
**akademik.**

## SIYOSIY PARTIYALAR MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASIGA IMZO VARAQALARINI TAQDIM ETDI

*Siyosiy partiyalar saylovda ishtirok etishi va deputatlikka nomzod ko‘rsatishi uchun saylov kampaniyasi boshlanganligi e’lon qilingan kundan kamida to‘rt oy oldin O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan va o‘zining saylovda ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlovchi kamida qirq ming saylovchining imzosini to‘plashi zarur.*

Qonunchilikka ko‘ra har bir ma’muriy-hududiy tuzilmadan, ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan to‘plangan saylovchilarning imzolari, respublika bo‘yicha to‘planishi lozim bo‘lgan imzolarning ko‘pi bilan sakkiz foizini tashkil etishi lozim.

Joriy yil 31-iyul sanasida MSK tomonidan Qonunchilik palatasi saylovida siyosiy partiyaning ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlovchi imzolarni to‘plash uchun har bir siyosiy partiyaga qirq ming saylovchining imzosini to‘plash imkonini beradigan imzo varaqalari blankalari berildi. Siyosiy partiyalar shu kundan boshlab o‘z partiyasining saylovda ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlovchi saylovchilarning imzolarini to‘plashga kirishdi.

Yuqoridagilarga asosan kecha Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi hamda O‘zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan saylovda ishtirok etishga ijozat berish bo‘yicha Markaziy saylov komissiyasiga “Ye-saylov” axborot tizimi orqali murojaat yuborildi. Shuningdek, to‘plangan imzo varaqalari Markaziy saylov komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun topshirildi.

Siyosiy partiyalar taqdim etgan imzo varaqalarining to‘g‘ri to‘ldirilganligi MSKning ekspert guruhlari tomonidan besh kunlik muddatda tekshirib chiqiladi.

**“Xalq so‘zi”.**

## MUKAMMAL STRATEGIYA – TARAQQIYOT GAROVI

*Davlatimiz rahbarining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori pedagogik ta’limni yangi bosqichga olib chiqishdagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Ushbu hujjatda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliygohlarni tizimli rivojlantirish, ularning boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, pedagogika sohasida ta’lim, fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash bilan bog‘liq muhim vazifalar belgilangan.*

### Nuqtai nazar

Pedagogik oliy ta’lim muassasalari faoliyatida mazkur qaror burilish nuqtasi hisoblanadi. Chunki unda ushbu oliygohlar faoliyatini yanada rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari bilan bog‘liq fundamental me’yorlar belgilab berilgan.

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash o‘zida muayyan mexanizm va ko‘rsatkichlarni jamlovchi aniq strategiya ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Shu bois Chirchiq davlat pedagogika universiteti uzoq va o‘rta muddatlarga mo‘ljallangan Universitetni pedagogik ta’lim innovatsion klasteri asosida rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqdi. Mazkur strategiya zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda pedagogik ta’limni takomillashtirishning yetakchi yo‘nalishlarini belgilab beradi va uning ijtimoiy samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

➔ 4

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

# IJTIMOIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING BARQARORLIGINI TA’MINLASH, SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat monitoringi va baholash natijalari majburiy ravishda Adliya vazirligiga taqdim etiladi hamda mas’ul davlat organining rasmiy veb-saytida e’lon qilib boriladi;

**b)** qonunchilik hujjatlarining huquqiy monitoringi **tartibga solish ta’sirini baholash doirasida** o‘tkaziladi;

**v)** qonunchilik hujjatlarining tartibga solish ta’sirini baholash hamda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha kompleks reja (keyingi o‘rinlarda – kompleks reja) **har yili** Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi;

**g)** kompleks reja ijrosi bo‘yicha Adliya vazirligi hisoboti Vazirlar Mahkamasi va Prezident Administratsiyasiga taqdim etib boriladi.

4. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining **ekspertlar bilan keng muhokama qilgan holda ishlab chiqilishini ta’minlash** maqsadida:

**a)** normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda, shu jumladan, baholashda, ma’lumot yig‘ish (so‘rov, fokus guruh muhokamalari va boshqa) jarayonlariga **ilmiy tashkilotlar** hamda **nodavlat notijorat tashkilotlari** keng **jalb qilinadi**;

**b) 2024-yil 1-oktabrdan boshlab**:

davlat organlari tomonidan **qonun loyihalari** bo‘yicha ushbu sohadagi davlat ekspertlik ilmiy-tadqiqot muassasalari **xulosalari majburiy ravishda olinadi**, qonunchilik hujjatlarini o‘zaro muvofiqlashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda o‘z kuchini yo‘qotgan deb topishni nazarda tutuvchi loyihalar bundan mustasno;

davlat ekspertlik ilmiy-tadqiqot muassasalari **xulosalari** va muhokama natijalari bo‘yicha materiallar loyihani Adliya vazirligi hamda hujjatni qabul qiluvchi organlarga kiritishda **majburiy tartibda** ilova qilinadi.

5. Adliya vazirligi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti bilan birgalikda **ikki oy muddatda** normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilmiy ekspertizadan o‘tkazish tartibini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

6. Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini baholash va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazishda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasida Bosh vazir kotibiyati tarkibida **3 ta shtat birligidan** iborat **Tartibga solish ta’sirini baholash va korrupsiyaga qarshi ekspertiza bo‘limi** (keyingi o‘rinlarda – Bo‘lim) tashkil etilsin.

Bunda Bo‘limning shtat birliklari Adliya vazirligi tizimidan 2 ta shtat birligini hamda Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tizimidan 1 ta shtat birligini maqbullashtirish hisobiga shakllantiriladi.

Quyidagilar Bo‘limning **asosiy vazifalari** etib belgilansin:

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini **baholash va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan** o‘tkazish sohasida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining hamda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning **baholashdan o‘tkazilishini va korrupsiyaga qarshi ekspertizasini amalga oshirish**;

manfaatdor davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar **ijro etilishi holatining tanqidiy tahlilini amalga oshirish**, natijasi bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini **tayyorlash** va **baholashdan o‘tkazishning** barcha bosqichlarida **jamoatchilik muhokamasi** o‘tkazilishi yuzasidan **monitoringni amalga oshirish**;

qonunchilik hujjatlarida korrupsiyaga **sharoit yaratuvchi normalarni aniqlash va bartaraf etish tizimining sifati hamda samaradorligini oshirish** bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

7. Adliya vazirligi huzuridagi **Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta’sirini baholash instituti (**keyingi o‘rinlarda – Institut)**ning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin**:

ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish barqarorligini ta’minlash sohasida **ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, tartibga solish ta’sirini baholash siyosatini samarali amalga oshirish yo‘nalishlarini** ishlab chiqish;

qonunchilik hujjatlarini baholashdan o‘tkazish orqali ijtimoiy munosabatlarni samarali va barqaror tartibga solish hamda **tartibga solish yukini kamaytirishga** qaratilgan takliflarni ishlab chiqish;

qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalarini baholash, ilmiy, huquqiy, korrupsiyaga qarshi va boshqa turdagi ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha **uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish**, mazkur yo‘nalishlarda o‘quv kurslarini tashkil etish;

qonunchilikdagi muammolarni tahlil qilish, huquqiy normalarning o‘zaro bog‘lanishi, kompleksligi va uyg‘unligi monitoringini o‘tkazish, **qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish** yo‘nalishlarini belgilash;

yetakchi xorijiy **ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlikni jadallashtirish**, xalqaro moliya institutlari va xorijiy donorlarning texnik ko‘mak va grantlarini jalb qilish;

qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, ularni baholash, ilmiy, huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatish.

Belgilab qo‘yilsinki, Institut xodimlari mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shart-sharoitlari bo‘yicha Adliya vazirligi markaziy apparati xodimlariga tenglashtiriladi.

Adliya vazirligi **ikki oy muddatda** Institut faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

8. Vazirlik va idoralar markaziy apparatlarida tuzilgan **strategik rejalashtirish** va **metodologiya** bo‘yicha tarkibiy bo‘linmalar zimmasiga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklansin:

tashkilotning norma ijodkorligi faoliyatiga **“aqlli tartibga solish” vositalarini** keng joriy etish;

tashkilot tomonidan ishlab chiqilishi rejalashtirilayotgan qonunchilik hujjatlari loyihalari bo‘yicha ma’lumotlarni shakllantirish va ularni Rejalashtirish dasturiga kiritish;

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari baholashdan o‘tkazilishini ta’minlash, shuningdek, tashkilotning norma ijodkorligi faoliyatiga, shu jumladan, baholash yuzasidan uslubiy yordam ko‘rsatish;

qonunchilik hujjatlari ijrosi monitoringini o‘tkazish, shu jumladan, huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish, tahlil qilish, uning barqarorligini ta’minlash bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish.

9. Strategik rejalashtirish va metodologiya bo‘yicha tarkibiy bo‘linmalar, qoida tariqasida, tegishli soha mutaxassislari, iqtisodchi, huquqshunos mutaxassisligiga ega xodimlar bilan jamlanadi hamda ularning **har ikki yilda kamida bir marta** majburiy ravishda malakasini oshirish tartibi joriy etiladi.

Strategik rejalashtirish va metodologiya bo‘yicha tarkibiy bo‘linmalar xodimlari malakasini oshirishni tashkil etish Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

10. Belgilansinki, quyidagi xarajatlar respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi:

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini baholashdan o‘tkazish jarayoniga ilmiy tashkilotlar, maslahat xizmatini ko‘rsatadigan tashkilotlar va soha ekspertlarini jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlar;

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining baholash uchun mas’ul xodimlarining malakasini oshirib borish bilan bog‘liq xarajatlar.

11. Davlat organlarining qonunchilik hujjatlari loyihalarini baholashdan o‘tkazish faoliyati samaradorligini tahlil qilish, baholash, xodimlarni rag‘batlantirish va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan **qonunchilik hujjatlari loyihalarini tartibga solish ta’sirini baholash reytingi** (keyingi o‘rinlarda – Reyting) joriy etilsin.

Reyting ushbu Farmonga **4-ilova**da keltirilgan **baholash mezonlari asosida** Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat organlari va tashkilotlarining qonunchilik hujjatlari loyihalarini baholash reytingini aniqlash uslubiyotiga muvofiq yuritiladi.

12. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

Adliya vazirligi tomonidan **har yili yil yakunlari bo‘yicha** Reyting aniqlanadi va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi;

Reytingda **dastlabki uch o‘rinni** egallagan davlat organlarining baholashga mas’ul xodimlari tegishli davlat organining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan oylik mehnat haqi fondining uch baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda bir martalik moddiy rag‘batlantiriladi;

Reytingi past davlat organlarining faoliyatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanadi.

13. Adliya vazirligi (A.Tashkulov):

mas’ul vazirlik va idoralarga mazkur Farmon talablarining amalga oshirilishi yuzasidan amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatib borsin;

**2024-yil 1-noyabrga** qadar Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimini ushbu Farmon talablari asosida takomillashtirishni ta’minlasin;

**bir oy muddatda** manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu Farmonga 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan hujjatlar asosida qabul qilingan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o‘tkazib, ularni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish choralarini ko‘rsin;

uch oy muddatda qonunchilikka ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida taklif kiritsin;

ushbu Farmonning tartibga solish ta’sirini baholash va ijrosi monitoringi uchun mas’ul etib belgilansin.

14. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 16-avgust

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining
ellik beshinchi yalpi majlisi to‘g‘risida

# AXBOROT

1

Konvensiya qoidalari to‘liqsiz ish vaqti sharoitida ishlaydigan barcha shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

Muhokama davomida to‘liqsiz ish vaqtida ishlaydiganlar to‘liq ish vaqtida ishlaydiganlar bilan bir xil haq-huquq hamda ijtimoiy himoyaga ega bo‘lishi lozimligi ta’kidlandi.

Senatorlar Konvensiya normalari O‘zbekiston qonunchiligiga, shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining maqsad va vazifalariga to‘liq mos kelishini qayd etdi.

Muhokama chog‘ida Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi to‘liqsiz ish vaqti sharoitida ishlovchi mehnatkashlar huquqlarini himoya qilish uchun qo‘shimcha kafolatlar yaratishga imkon berishi, mehnatni muhofaza qilish milliy tizimini yanada takomillashtirishga salmoqli turtki berishi ta’kidlandi.

Senatorlarning ta’kidlashicha, Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi mehnat sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirishga va xalqaro standartlarni samarali joriy etishni ta’minlashga xizmat qiladi, shuningdek, O‘zbekistonning xodimlar huquqlari kafolatlarini ta’minlash bo‘yicha asosiy xalqaro prinsiplar va standartlarga sodiqligini ko‘rsatadi.

Muhokama yakunlari bo‘yicha qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi.

So‘ngra “Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo‘yicha xalqaro tadqiqot markazi Ustaviga (Rim, 2013-yil 29-noyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi haqida”gi qonun muhokama qilindi.

Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo‘yicha xalqaro tadqiqot markazi 1956-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning qarorgohi Rimda joylashgan. Hozirgi vaqtda 140 ga yaqin mamlakatlar ushbu xalqaro tashkilotga a’zo bo‘lgan.

Ta’kidlanganidek, Xalqaro tadqiqot markazi ta’lim, axborot tarqatish, tadqiqotlar va hamkorlik, jamoatchilik kampaniyalari orqali jahon madaniy merosini asrab-avaylashga ixtisoslashtirilgan xalqaro tashkilotdir.

Xalqaro tadqiqot markazi UNESCOning maslahat organi bo‘lib, o‘z mandati doirasida jahon madaniy merosi obyektlarida amalga oshirishga mo‘ljallangan loyihalarni ko‘rib chiqishda tegishli xulosalar va tavsiyalar tayyorlashga yordam beradi.

Senatorlar qayd etganidek, Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo‘yicha xalqaro tadqiqot markazi Ustaviga O‘zbekistonning qo‘shilishi xorijiy tajribani o‘rganish va joriy etish orqali tarixiy obidalarni restavratsiya qilish bo‘yicha yangi milliy maktabni shakllantirish, shuningdek, mamlakatimizda tarixiy yodgorliklar va me’moriy inshootlarni restavratsiya hamda konservatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirishga sharoit yaratadi.

Qonun Senat tomonidan ma’qullandi.

Shu bilan birga, navbatdagi yalpi majlisda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga bola huquqlari himoyasini yanada mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun barchaning diqqat markazida bo‘ldi.

Muhokama jarayonida ta’kidlanganidek, keyingi yillarda voyaga yetmagan bolalarni qonunga xilof diniy ta’lim olishga aynan ota-onalarning o‘zi olib borishi holatlari ko‘payib bormoqda.

Huquq-tartibot organlari tomonidan olib borilgan o‘rganishlar natijasiga ko‘ra 2021 – 2023-yillar mobaynida noqonuniy diniy ta’limotdan saboq berish bilan bog‘liq 2 457 ta ma’muriy huquqbuzarlik aniqlangan. Ularning 1 479 tasi “hujra” sharoitida tashkil etilgan bo‘lib, ularda tahsil olayotganlarning 60 foizi voyaga yetmaganlardir.

Bolaning qonunga xilof diniy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, hech qanday ro‘yxatdan o‘tmagan, norasmiy markazlar va shaxslardan diniy ta’lim olishi natijasida ularning diniy ekstremistik g‘oyalarning qurboniga aylanib qolmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. So‘nggi 3 yilda diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha javobgarlikka tortilgan voyaga yetmagan shaxslar soni 4 baravar oshgan.

Qolaversa, bunday noqonuniy ta’lim jarayonida bolalarga nisbatan turli og‘ir jinoyatlar sodir etilmoqda. Bolaning erkin harakatlanishini cheklash hamda sanitariya-gigiyena talablariga javob bermaydigan bino va xonalarda saqlash, unga jismoniy azob berish yoki ruhiy bosim o‘tkazish holatlarini, hatto jinsiy zo‘ravonlik qurboni bo‘layotganligini bunga yaqqol misollar sifatida keltirib o‘tish mumkin.

Mamlakatimizda diniy ta’lim masalasi amaldagi qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilgan. Jumladan, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunda va undan oldingi qonunlarda diniy professional ta’limning huquqiy asoslari qat’iy belgilangan. Xususiy tartibda diniy ta’lim bilan shug‘ullanish qonunga xilof hisoblanadi.

Muhokama etilayotgan qonun yuqorida qayd etilgan salbiy holatlarning oldini olish, ota-onalar hamda ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning bolalarni o‘qitish, ta’lim va tarbiya berishga doir majburiyatlarini bajarish borasidagi mas’uliyatini kuchaytirish, shuningdek, bolalarning bilim olish huquqi kafolatlarini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilganligi alohida ta’kidlandi.

Mazkur qonun bilan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga va O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bolani qonunga xilof ravishda diniy ta’lim olishga jalb qilishga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, ushbu qonunchilik talabiga rioya etmaganligi uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Shu bilan birga, qonunda ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning o‘z bolalarini shaxsiy e’tiqodlariga muvofiq diniy va axloqiy jihatdan tarbiyalash huquqi aniq bayon qilinmoqda. Mazkur norma Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 18-moddasida belgilangan qoidalar asosida kiritilyapti.

Qonunda mazkur jarayonlarda ota-onaning mas’uliyati va javobgarligi yanada kuchaytirilmoqda. Chunki yosh bola o‘zi noqonuniy hujraga borib qolmaydi va aynan mana shu jihat qonunda tartibga solingan.

Qonunning qabul qilinishi bolalarning ta’lim olish huquqi kafolatlarini ta’minlashga, ularning komil inson bo‘lib yetishishiga, turli og‘ir jinoyatlar va diniy ekstremistik g‘oyalar qurboniga aylanishining oldini olishga xizmat qilishi senatorlar tomonidan ta’kidlandi.

Qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi.

Senatning ellik beshinchi yalpi majlisida O‘zbekiston uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risidagi masala ham muhokama etildi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi 4 yilda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-huquqiy sohalariga oid xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha Prezidentimizning bir qator Farmon va qarorlari qabul qilingan.

Ular orasida 2020-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-sonli Farmoni yurtimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim dasturilamal bo‘ldi.

O‘tgan davr mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy sohalarda olib borilgan islohotlar natijasida bir qator xalqaro reytinglarda ijobiy ko‘rsatkichlarga erishildi.

Xususan, iqtisodiyotning liberallashuvi va qulay investitsiya muhitining yaratilishi natijasida Iqtisodiy erkinlik indeksida mamlakatimiz o‘rni 5 pog‘onaga ko‘tarilib, 178 ta mamlakat orasida 109-o‘rinni egalladi. So‘nggi 7 yilda esa O‘zbekiston o‘z ko‘rsatkichlarini 57 pog‘onaga yaxshiladi.

Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan, qishloq xo‘jaligi, energetika, qurilish, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ko‘plab sohalarda olib borilgan innovatsion va texnologik rivojlanish O‘zbekistonning Global innovatsiyalar indeksidagi ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga olib keldi. O‘zbekiston mazkur indeksda 132 ta davlat orasida 93-o‘rindan 82-o‘ringa ko‘tarildi.

Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, davlat organlari faoliyatiga elektron



Akmal MUHAMMADOV olgan suratlar.

texnologiyalarning keng joriy qilinishi natijasida Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida respublikamiz o‘z ko‘rsatkichini 18 pog‘onaga yaxshilab, 193 ta davlat orasida 69-o‘rinni egalladi va bu borada “juda yuqori rivojlanayotgan” mamlakatlar qatoriga kirdi.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar Korrupsiyani qabul qilish indeksidagi mamlakatimiz ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, ushbu indeksda 180 ta davlat orasida O‘zbekiston ko‘rsatkichlarini 2020-yildagi 146-o‘rindan 2024-yilda 121-o‘ringa olib chiqishga erishildi. Umuman olganda, so‘nggi 7 yilda indeksdagi mamlakatimiz o‘rni 36 pog‘onaga yaxshilandi.

Mamlakatimizda huquq ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida olib borilgan islohotlar natijasida Huquq ustuvorligi indeksida O‘zbekiston so‘nggi uch yilda o‘z ko‘rsatkichlarini 14 pog‘onaga yaxshilab, 142 ta mamlakat orasida 78-o‘rinni egalladi.

Shu bilan birga, respublikamizning xalqaro maydondagi mavqeini yanada oshirish, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ixcham va natijaga yo‘naltirilgan tizimni joriy qilish hamda parlament vakolatlarini kengaytirish maqsadida 2024-yil 19-iyunda “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Prezidentning PF–91-sonli Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan Oliy Majlis Senati tomonidan ustuvor xalqaro reyting va indekslarning ro‘yxatini hamda samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlarini tasdiqlash belgilandi.

Majlis davomida mamlakatimiz uchun 15 ta ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar va ularga mas’ul vazirlik va idoralar ro‘yxati hamda 2030-yilga qadar maqsadli ko‘rsatkichlar ishlab chiqilganligi qayd etilib, O‘zbekiston Respublikasining ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni yaxshilanishi to‘g‘risidagi milliy ma’ruzani tayyorlash yuzasidan tegishli vazifalar belgilandi.

Senatorlarning fikricha, xalqaro reyting va indekslar muayyan soha, yo‘nalish va tarmoqlarni turli yo‘llar bilan aniqlash vositasi hisoblanib, ular mamlakatlarning jahon hamjamiyatidagi o‘rni va mavqeini belgilashda, olib borilayotgan islohotlarga xolis baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokamadan so‘ng Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Shuningdek, Suv xo‘jaligi vazirligining suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, sohaning boshqarish mexanizmlarini hamda qonunchilik bazasini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan axboroti eshitildi.

Ta’kidlanganidek, Senat suv resurslarini muhofaza qilish, ulardan oqilona va samarali foydalanish, suvni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, sohaning qonunchilik bazasini mustahkamlash vazifalari ijrosiga alohida e’tibor qaratgan.

Xususan, suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida 11 446 ta suv xo‘jaligi obyektida “aqlli suv”, 6 953 tasida “Dayver” hamda 1709 ta nasos stansiyasida “onlayn” nazorat qilish qurilmalari o‘rnatilgan. Shuningdek, 67 ta yirik suv xo‘jaligi obyekti to‘liq avtomatlashtirilgan.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash, 400 ming gektardan ortiq maydonlarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, zarur irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish natijasida joriy yil birinchi yarim yilligida 2 milliard metr kubdan ziyod suv tejalgan.

Respublika bo‘yicha klaster va fermer xo‘jaliklari hisobidagi 10 540 km. ichki sug‘orish tarmoqlari betonlashtirilgan, shuningdek, 34 885 km. kanal, ariq va lotoklar tozalangan.

Sohada “suvkredit.uz” platformasi joriy qilinib, jami 134,3 ming gektar maydonda tomchilatib, yomg‘irlatib va diskret usulda sug‘orishni joriy qilish uchun 2 trillion so‘mdan ortiq imtiyozli kredit mablag‘lari ajratilgan.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimiga “Chordara” suv omboridan 871 million metr kub hamda boshqa manbalardan 300 million metr kub chuchuk suv tashlanishi natijasida uning ekologik holati barqarorlashmoqda.

“Suvchilar maktabi” tashkil etilib, 70 mingga yaqin tinglovchilar o‘qitilishi ta’minlangan hamda Suv loyihalari markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Amalga oshirilgan ishlar bilan birga sohada kelgusida hal qilinishi lozim bo‘lgan qator masalalar mavjudligi qayd etilib, mas’ullarga tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

Jumladan, iqlim o‘zgarishi omillarini inobatga olib, sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlarini chuqur xatlovdan o‘tkazish, nisbatan arzon va tez amalga oshiriladigan innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda kanallarni betonlashtirishni tezlashtirish, qishloq xo‘jaligida suv kam talab qiluvchi, iqtisodiy samarador bioagrotexnologiyalarni, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish zarurligi aytib o‘tildi.

Qishloq xo‘jaligida suv sarfini qisqartirish, irrigatsiya tizimlaridagi nosozliklarni bartaraf etish, umumiy suv yo‘qotishlarini kamaytirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, suvdan foydalanish madaniyatini oshirish, jamoatchilikka “suv tekin emas” g‘oyasini singdirish ishlariga e’tibor qaratish lozimligi qayd etildi.

Muhokamadan so‘ng ushbu masala yuzasidan Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Senatning 55-yalpi majlisida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi masala ham ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasi va Oliy Majlis Senatining tegishli qaroriga asosan Oybek A’zamjonovich Barakabayev boshqa ishga o‘tganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi lavozimidan ozod etildi.

Oliy Majlis Senatining ellik beshinchi yalpi majlisida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarorlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi masala ham ko‘rib chiqildi.

Yalpi majlisda jamiyat hayotining barcha sohasi huquqiy asoslarini mustahkamlashga va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samaradorligini oshirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 13 ta masala, shu jumladan, 11 ta qonun ko‘rib chiqildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik beshinchi yalpi majlisi yakunlandi.

**O‘zbekiston Respublikasi**
**Oliy Majlisi Senati**
**Axborot xizmati.**

**Malayziyadagi “RTM” davlat teleradiokompaniyasining ijodiy guruhi O‘zbekiston haqida maxsus film suratga olish maqsadida mamlakatimizga keldi.**

# KENG QAMROVLI ISLOHOTLARDA MILLIY PARLAMENTARIZMNING O‘RNI VA ROLI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasi tomonidan “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda milliy parlamentarizmning o‘rni va roli” mavzuida konferensiya o‘tkazildi.*

## Anjuman

Unda deputatlar, senatorlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar Kengashlari deputatlari, Yoshlar parlamenti a’zolari hamda OAV vakillari qatnashdi.

Tadbirni Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari A. Saidov kirish so‘zi bilan ochib, mustaqillik O‘zbekistonda demokratik milliy parlamentning shakllanishi va rivojlanishi uchun tom ma’noda siyosiy-huquqiy asos yaratganini e’tirof etdi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, kuchli parlament va xalq vakillik organlari – yangi O‘zbekistonning tayanchi. Hozirgi kunda mamlakatimiz parlamenti islohotlarning faol subyekti bo‘lib, qonun ijodkorligi yo‘nalishida zamon talablariga javob beradigan qonunlarni qabul qilmoqda.

Ta’kidlanganidek, 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilinishi tufayli Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatida yangi davr boshlandi va qonun ijodkorligi yo‘nalishidagi faoliyatida tub burilish yuz berdi. Ushbu tarixiy hujjatlar o‘tgan qisqa davrda xalq saylagan vakillik organlari – parlament va xalq deputatlari Kengashlarining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va ahamiyatini tubdan oshirdi.

Xususan, davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yanada kengaytirish, shuningdek, qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq



islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo‘naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbarining “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Jumladan, qonunchilik bazasini tizimlashtirish, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish barqarorligi ta’minlandi. Norma ijodkorligi jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga o‘tildi. Bu, o‘z navbatida, parlament ish faoliyatining butunlay yangi yo‘nalishda tashkil etilib, qonun loyihalarini qabul qilish va ko‘rib chiqishning demokratik tartib-qoidalari joriy etilishiga turtki bo‘ldi.

Tadbirda aytilganidek, qonunlarni qabul qilish jarayonida keng jamoatchilik ishtirokini ta’minlash, fuqarolarning xohish-istaklarini hisobga olish, aholi o‘rtasida ochiq muhokamalar o‘tkazish huquqiy jihatlarning sifatli bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, parlamentning ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan ta’sirchan parlament nazoratini olib borayotgani mansabdor shaxslarning ham mas’ulligini oshirishga xizmat qilyapti.

Shuningdek, Oliy Majlis palatalarida hududlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, jumladan, masofaviy ishlash amaliyoti keng joriy etilgani, hududlarni rivojlantirish va investitsiya dasturlari muhokamasida tegishli hududdan saylangan deputat va senatorlarning ishtiroki faollashib borayotgani ham samarali parlamentarizmning isbotidir.

Tadbirda so‘z olganlar mahalla instituti faoliyatining samaradorligi oshgani, xalq deputatlari Kengashlari hududlarda mavjud muammolarni hal qilishda asosiy bo‘g‘inga aylanganligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslari zamon talablariga moslashtirilganini alohida qayd etdi.

Yakunda ishtirokchilar bugun O‘zbekistonda barcha sohadagi islohotlar chuqurlashib, demokratik yangilanishlar sifat jihatdan yangi pog‘onaga ko‘tarilib borayotganini alohida ta’kidlashdi.

**“Xalq so‘zi”.**

## Qonunchilik palatasi qo‘mitalarida

# OQIBAT EMAS, SABABNI ANIQLASH MUHIM

*Ayni kunlarda Qonunchilik palatasida bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ikkinchi o‘qishga tayyorlanmoqda.*

Mazkur qonun loyihasi palataning yalpi majlisida birinchi o‘qishda konseptual jihatdan qabul qilingandan keyin mas’ul qo‘mitaga ko‘plab savollar, taklif va tavsiyalar kelib tushgan.

Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining ekspertlik guruhi a’zolari, tashabbuskor deputatlar, mutaxassislar va olimlar ishtirok etgan Ishchi guruhning kengaytirilgan yig‘ilishida qonun loyihasidagi normalar birma-bir ko‘rib chiqilib, takomillashtirish masalalari muhokama qilindi.

Ombudsmanning o‘z faoliyati natijadorligi ta’sir choralariga bag‘ishlangan normalar prinsipial qayta ko‘rib chiqildi. Ya’ni ta’sir choralari turi sifatida taqdimnoma kiritish, ogohlantirish e’lon qilish, xulosa yuborish, talabnoma kiritish kabi normalar ko‘rib chiqilib, loyihada alohida bob sifatida ko‘rsatish maqsadga muvofiq deb topildi.

Jumladan, taqdimnomada quyidagilar nazarda tutilmoqda.

Ombudsman tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish bo‘yicha tashkilotlar va mansabdor shaxslarga aniqlangan huquqbuzarliklar bo‘yicha ularni sodir etishga imkon yaratgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritiladi.

Taqdimnoma kechiktirmay ko‘rib chiqilishi va ko‘rilgan choralar to‘g‘risida Ombudsmanga, agar boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, o‘n besh kundan kechiktirmay yozma shaklda xabar qilinishi lozim. Shuningdek, talabnoma kiritish instituti to‘g‘risidagi norma taklif bergan deputatlar ishtirokida takomillashtirilmoqda.

Mas’ul qo‘mitada ushbu qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash ishlari davom etmoqda.

# SUV KODEKSI ISHLAB CHIQILMOQDA

*Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan Ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi.*

Yig‘ilishda qonun loyihasi atroflicha ko‘rib chiqilib, uni birinchi o‘qishda yalpi majlisda muhokama etish jarayonida deputatlar tomonidan berilgan bir qator takliflar chuqur tahlil qilindi.

Xususan, deputatlar kodeks loyihasini takomillashtirish davomida asosiy e’tiborni suvdan oqilona foydalanish, samarali boshqarish va muhofaza qilishni ta’minlaydigan huquqiy shart-sharoitlar yaratishga, suv yetkazib beruvchilar va suv iste’molchilarining mas’uliyatini oshirishga qaratmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi mamlakatning suv xavfsizligiga erishish, global suv taqchilligi kuchayib borayotgan davrda barcha iqtisodiyot tarmoqlarining va atrof-muhitning ushbu resursga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, mazkur ne’matdan oqilona foydalanish, suv infratuzilmasining va sug‘oriladigan yerlarning holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda mas’ul qo‘mitada qonun loyihasini takomillashtirish ishlari davom etmoqda.

**“Xalq so‘zi”.**

# KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH OILAGA BARAKA KIRITADI

*Keyingi yillarda O‘zbekistonda kambag‘allikka barham berishga yondashuv tubdan o‘zgargani, yangi tizim yaratilgani va u doimiy takomillashib borayotgani ortidan aholi daromadlari oshayotgani real raqamlarda namoyon bo‘layotir.*

## Aks sado

Tarixan qisqa – atigi to‘rt yil ichida tizimli chora-tadbirlar o‘zining samarasini berib, uch milliondan ziyod vatandoshlarimizning turmush sharoiti yaxshilandi. Kambag‘allik darajasi 17 foizdan 11 foizga tushdi. Jahon banki shu yil may oyida e’lon qilgan “O‘zbekistonning kambag‘allikni qisqartirish yo‘li: xalqaro taqqoslash dasturi xulosalari” hisobotida O‘zbekiston bu sohada eng yuqori natijaga erishgan mamlakatlardan biri bo‘lib qolayotgani qayd etilgani ham bejiz emas.

Shu o‘rinda aniq raqam va dalillarga murojaat qilsak. Bilamizki, kambag‘al qatlamning katta qismi qishloq joylarda yashaydi. Jahon banki ekspertlari o‘rganishlar asnosida mamlakatimizda 2021 – 2023-yillarda qishloq joylarida 1,2 million aholi (shaharlarda esa 400 ming kishi) kambag‘allikdan chiqarilganini qayd etdi. Yurtimiz bo‘ylab xususiy maktablar soni 2018-yildagi 30 tadan 2023-yilga kelib 350 tagacha ko‘paygan. Bu ma’lum to‘lov evaziga sifatli ta’limni kafolatlovchi maktablarga aholining talabi, shunga yarasha moddiy imkoniyati ham oshib borayotganini ko‘rsatadi.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, turizm maqsadlarida xorijga chiqqan fuqarolar soni 2016-yildagi 295 ming kishidan 2023-yilda 661 ming kishiga (o‘sish – 2,2 baravar), turizm xizmatlari importi 340 million dollardan 1,3 milliard dollarga yetgan.

Odamni ruhlantiradigan bunday dadil o‘zgarishlar nimadan dalolat? Shubhasiz, bu aholining jon boshiga daromadini oshirish, xalqimiz turmush darajasini ko‘tarish, iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda ijtimoiy ko‘makka muhtoj qatlam, xususan, kambag‘allar sonini qisqartirish yo‘lida olib borilayotgan amaliy ishlarning hayotiy tasdig‘idir.

Shu bilan birga, bugungi kunda mazkur sohada mazmun-mohiyatan yangicha yondashuvlar kerakligi, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoyani bir-biridan ajratmay, aksincha, bir butun tizimga aylantirish ayni zarurat ekani yaqqol ko‘rinmoqda.

14-avgust kuni Prezident Shavkat



Mirziyoyev kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishgan chog‘ida bu xususda yana bir bor to‘xtalib o‘tdi. Unda aytilganidek, kambag‘al oilalarni tanlashda aniqlik, ularni bu holatdan olib chiqish va mablag‘ ajratishda yaxlitlik yetishmayotgani sezilmoqda.

Tahlillarga ko‘ra har yili mamlakatimizda aynan kambag‘allikni qisqartirishga 14 trillion so‘m yo‘naltirilmoqda. Lekin bu mablag‘ 40 turdagi moliyaviy vositalar orqali, o‘nga yaqin idoralar tomonidan berilmoqda.

Taqdimotda bu tizim o‘zgartirilishi, mablag‘lar hudud, tuman va mahallalar kesimida kambag‘al oilalar sonidan kelib chiqib, mos ravishda Ijtimoiy himoya milliy agentligi va mahalliy hokimliklar tomonidan taqsimlanishi ma’lum qilindi. Manzilli ro‘yxat shakllantirilib, unga “Ijtimoiy himoya yagona reestri”dagi hamda kambag‘allikka tushish xavfi yuqori bo‘lganlar kiritiladi. Bunday oilalar “mahalla yettiligi” va faollari tomonidan ovoz berish yo‘li bilan tasdiqlanadi. Kambag‘allikdan chiqarishga qaratilgan barcha ijtimoiy xizmat va yordamlar “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, endilikda nafaqat og‘ir sharoitda yashayotgan oilalar, balki kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan mahallalar ro‘yxati ham tuzilib, har yili 50 ta ana shunday toifadagi mahallani ishsizlik va unga soyadek ergashuvchi kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish choralari ko‘riladi. Ehtiyojmand insonlarni ish bilan ta’minlagan tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari joriy qilinishi, bizningcha, eng maqbul yechimlardan biri bo‘ladi.

O‘rni kelganda aytish joizki, ijtimoiy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan bunday istiqbolli tizimning yo‘lga qo‘yilishi Xalq demokratik partiyasining dasturiy maqsadlari bilan hamohangdir. Biz ushbu yo‘nalishdagi islohotlarda ham faol ishtirok etamiz.

**Ulug‘bek INOYATOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi**
**O‘zXDP fraksiyasi rahbari.**

## Davlat dasturi:

# IJRODAGI SUSTKASHLIKLAR TAHLILI

*Avval xabar berganimizdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 2024-yil birinchi yarim yilidagi ijrosi yuzasidan hisoboti muhokama qilindi.*

## Munosabat

Majlisda aytib o‘tilganidek, davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida Prezidentimizning 8 ta Farmoni, 9 ta qarori, Hukumatning 13 ta qarori va 25 ta boshqa hujjat qabul qilingan. Jumladan, norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg‘unligini ta’minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsiyaviy asoslarini rivojlantirishda shu yil 19-fevralda imzolangan “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mitalari a’zolari davlat dasturining birinchi yarim yillikdagi ijrosi yuzasidan o‘z fikrlarini bildirdi.

**Nodir TILAVOLDIYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari:**



– Qo‘mitamiz asosiy e’tiborni davlat dasturi doirasida ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholi o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish, tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarga qaratdi. Albatta, hisobot davrida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha manzilli choralar ko‘rilgan. Buni alohida e’tirof etamiz. Shu bilan birga, dasturdagi ayrim vazifalar ijrosi bo‘yicha boshlangan ishlar yakuniga yetkazilmagan.

Masalan, ishga qabul qilishda ish beruvchilar tomonidan talab etiladigan shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi, mehnat daftarchasi hamda nusxasi kabi hujjatlar sonini qisqartirishni nazarda tutuvchi “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi shu yilning may oyida tayyorlanishi belgilangan bo‘lsa-da, lekin hozirgi kunga qadar Qonunchilik palatasiga kiritilmagan.

Shundan kelib chiqib, biz dasturda belgilangan, lekin ayrim sabablarga ko‘ra ijrosi ta’minlanmagan vazifalar bo‘yicha deputat va parlament nazoratini kuchaytirishimiz lozim. Zero, uning har bir bandida belgilangan vazifalar o‘z vaqtida bajarilishi kerak.

**Turg‘onboy XO‘JANAZAROV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari:**



– Hukumatning davlat dasturi ijrosi yuzasidan hisoboti yaqinda bizning qo‘mitamizda ham atroflicha ko‘rib chiqildi. Hisobot davrida hukumat tomonidan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2024-yil bahorgi ko‘chat ekish mavsumida mamlakat bo‘yicha 138,1 mln. tup daraxt va buta ko‘chati ekilganligini qo‘mitamiz alohida e’tirof etdi.

Shu bilan birga, hukumatni davlat dasturida bajarilishi belgilangan ayrim vazifalarni o‘z muddatida hamda sifatli amalga oshirish, muddati uzaytirilgan va yakuniga yetkazilmagan bandlar ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash choralarini ko‘rishi lozim, deb hisoblaydi.

**Abdig‘ani UMIROV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Budjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi a’zosi:**



– Dastur ijrosini ta’minlash borasida samarali ishlar olib borilganiga qaramay, ayrim vazifalar ijrosi to‘liq bajarilmay qolgan. Masalan, lizing xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlarning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibini belgilash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish joriy yilning iyun oyiga qadar bajarilishi belgilangan bo‘lsa-da, lekin ushbu vazifa ijrosi ayrim sabablarga ko‘ra kechikmoqda.

Shuningdek, temir yo‘l transporti sohasida davlat tomonidan tartibga solinadigan va bozor tamoyillari asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxatini tasdiqlash bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini tayyorlash muddati shu yilning mart oyiga qadar bajarilishi belgilangan bo‘lsa-da, ushbu vazifa ijrosi ham ta’minlanmasdan qolmoqda.

Biz davlat dasturining olti oylik ijrosini qo‘mitamizda atroflicha ko‘rib chiqib, unda belgilangan va o‘z vaqtida bajarilmay qolgan vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan hukumatga taklif va tavsiyalarimizni berdik. O‘z navbatida, mazkur dasturiy hujjat ijrosi ustidan doimiy parlament nazoratini olib boramiz.

**Shahnoza XOLMAHAMATOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi a’zosi:**



– Hisobot davrida ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Xususan, 2684 ta yangi maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yilib, qamrov 74,6 foizga yetkazilgan. Ammo davlat dasturi ijrosini ta’minlash borasida samarali ishlar olib borilganiga qaramay, ayrim vazifalar to‘liq bajarilmasdan qolgan.

Xususan, dasturda fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ilmiy loyihalar tanlovini o‘tkazish tartibini takomillashtirishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish 2024-yilning iyun oyiga qadar bajarilishi belgilangan bo‘lsa-da, ayrim sabablarga ko‘ra ushbu vazifa ijrosi oktabr oyiga qadar uzaytirilgan.

Shundan kelib chiqib, dasturda belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash yuzasidan mutasaddi vazirlik hamda idoralarning mas’uliyatini yanada oshirish, ikkinchi yarim yillikda ijro etilishi belgilangan tadbirlarning bajarilishi yuzasidan tizimli monitoring olib borish lozim.

**Dilorom IMOMOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi raisining o‘rinbosari:**



– Hukumat hisobotini ko‘rib chiqib, qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilgan ishlarga alohida e’tibor qaratdik. Qayd etish kerak, joriy yilning o‘tgan davri mobaynida hukumat dasturda belgilangan vazifalar ijrosini samarali ta’minlashga katta e’tibor qaratgan.

Lekin ayrim bandlarning ijro muddati yil davomida deb belgilangan bo‘lsa-da, ularning bajarilish holati haqidagi ma’lumotlar hisobotda yetarlicha aks ettirilmagan.

*Majlisda Qonunchilik palatasining Hukumat hisoboti yuzasidan tegishli qarori qabul qilinib, Vazirlar Mahkamasiga davlat dasturida ijro muddati uzaytirilgan va bajarilishi yakunlanmagan vazifalarning o‘z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta’minlash yuzasidan mutasaddi vazirlik va idoralarning mas’uliyatini yanada oshirish, bu bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, dasturda belgilangan qonun loyihalarini ishlab chiqishda Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari va qo‘mitalar bilan hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha qator tavsiyalar berildi.*

**“Xalq so‘zi”.**

## DUNYO HAFTA ICHIDA

### Kaspiy chekinmoqda

*Keyingi yillarda Kaspiy dengizining suv sathi tobora pasayib bormoqda, mintaqa mamlakatlari esa ekologik vaziyat yomonlashayotganidan xavotirda. Xususan, ilgari to‘lqinlanib, shovullab turgan dengiz ortga chekinmoqda, qirg‘oqlar katta tepalikka aylanmoqda.*

Qirg‘oqbo‘yi davlatlar – Ozarbayjon, Eron, Qozog‘iston, Rossiya va Turkmaniston iqtisodiyotida muhim o‘rin tutuvchi Kaspiy dengizining umumiy maydoni 368 ming kvadrat kilometrdan ortiq. Bu – Yaponiya hududidan ham katta. Dengizning shimoliy nuqtasidan janubiy nuqtasigacha bo‘lgan uzunligi 1200 kilometr, kengligi esa 320 kilometrni tashkil etadi. Kaspiyning maksimal chuqurligi 1025 metrga yetadi.

### Qirg‘izistonda endi OSAGO majburiy

*Qirg‘izistonda avtoni qayta ro‘yxatdan o‘tkazishda mulkdorlar boshqa hujjatlar bilan bir qatorda fuqarolik-huquqiy javobgarlikni majburiy sug‘urta qilish (OSAGO) to‘g‘risidagi shartnomani ham taqdim etishi kerak.*

Bu bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi.

Ushbu mamlakatda avtotransport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risidagi qonun qariyb to‘qqiz yil oldin imzolangan edi. Biroq OSAGO polisi yo‘qligi uchun jarima sanksiyalarini joriy etish muddati bir necha bor qoldirildi. So‘nggi o‘zgarishlarga ko‘ra jismoniy shaxslarda 2025-yil 1-yanvargacha vaqt bor. Ammo yuridik shaxslar, jumladan, davlat organlari, shuningdek, boshqa davlatlarda ro‘yxatdan o‘tgan avtotransport vositalari egalari va (yoki) haydovchilari mulkida yoki egaligida bo‘lgan avtomobillar uchun talablar 2023-yil 1-apreldan kuchga kirgan.

### Favqulodda holat e’lon qilindi

*Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) chorshanba kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda ilgari “maymun chechagi” deb nomlanuvchi “mpox” epidemiyasi sababli sog‘liqni saqlash sohasida global favqulodda holat e’lon qildi.*

Tashkilot bosh direktori Tedros Gebreyesus “X” ijtimoiy tarmog‘ida “mpox” bilan bog‘liq vaziyat allaqachon xalqaro miqyosda xavotir uyg‘otayotganini yozdi.

Avvalroq, Afrika kasalliklar nazorati va profilaktikasi markazlari “mpox” epidemiyasi sababli sog‘liqni saqlash sohasida favqulodda holat e’lon qilgandi. Hozirda Afrikaning 18 ta davlatida 15 mingdan ortiq holatlar va 461 o‘lim qayd etilgan, bu o‘tgan yilning shu davridagiga nisbatan 160 foiz ko‘pdir. Umuman, Afrikada kasallikni nazorat qilish uchun 10 million doza vaksina kerak, hozir esa atigi 200 ming doza mavjud.

Eslatib o‘tamiz, 2022-yil iyul oyida ham JSST “mpox” epidemiyasini global favqulodda holat deb e’lon qilgandi. O‘sha paytga kelib, taxminan 70 mamlakatda 16 mingdan ortiq kasallik holatlari qayd etilgan.

### Jurnalistlar ish tashladi

*Senegal ommaviy axborot vositalari hukumatning matbuotga bosimiga e’tiroz sifatida ish tashladi. Telekanal va radiostansiyalar efirga chiqmadi, hukumatga xayrixoh bo‘lmagan kundalik gazetalar chop etilmadi.*

“Avvalroq ikkita yetakchi sport gazetasi moliyaviy qiyinchilik tufayli o‘z faoliyatini to‘xtatgan edi. Yana yettita xususiy nashr yopilish xavfi ostida”, deb hisoblaydi “Chegara bilmas muxbirlar” tashkiloti vakillari.

Senegal matbuot tarqatuvchilari va noshirlari kengashi vakilining aytishicha, hukumat soliq qarzdorligi bahonasida ushbu xususiy OAVning bank hisob raqamlarini “muz”latib qo‘ygan va jihozlarini musodara qilgan.

“Chegara bilmas muxbirlar” matbuot erkinligi indeksiga ko‘ra to‘rt yil ichida Senegal reytingi ikki baravar – 47-o‘rindan 94-o‘ringa tushib ketgan.

**Abduvali SOYIBNAZAROV**
**(“Xalq so‘zi”) tayyorladi.**

**“Uzautotrans Service” korxonasi ma’muriyati xabariga ko‘ra bugundan boshlab Toshkent – Shahrisabz – Kitob va Toshkent – Yangiyer yo‘nalishlarida muntazam avtobus qatnovlari yo‘lga qo‘yiladi.**

# MUKAMMAL STRATEGIYA – TARAQQIYOT GAROVI

1

Strategiya mohiyat e’tiboriga ko‘ra mamlakatimizning maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta’lim muassasalarining tarbiyachilariga, o‘qituvchilariga bo‘lgan ehtiyojni sifatli qondirish, tumanlar va qishloq joylardagi ta’lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash hamda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim sifatini ilg‘or xorijiy tajribalar hamda raqamlashtirish texnologiyalari yordamida yuksaltirishni ko‘zda tutadi.



**G‘afurjon MUHAMEDOV,**
**Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori,**
**O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi.**

Strategiyaning missiyasi – ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy ta’lim dasturlari, ilm-fan va amaliyot yangiligi hamda innovatsion ta’lim amaliyoti yutuqlari, raqamlashtirish texnologiyalari uyg‘unlashgan ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish orqali universitetning xalqaro imijini yaratish. Maqsad esa ilg‘or xorijiy tajribalar bo‘yicha ishlab chiqilgan zamonaviy ta’lim dasturlari, psixologik-pedagogik fanlar va innovatsion ta’lim amaliyoti yutuqlari, ijtimoiy hamkorlik asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan iborat.

Strategiyaning istiqbolli nigohi – sifatli ta’lim, ilg‘or tadqiqot, innovatsion ekotizim va jamiyat bilan o‘zaro raqamlashgan aloqaga ega xalqaro darajadagi universitet, ya’ni “Universitet-3.0” (ta’lim, fan va innovatsiya) modelidan “Universitet-4.0” (ta’lim, fan, innovatsiya va jamiyat bilan o‘zaro raqamlashgan aloqa) modeliga o‘tish.

Shiorimiz – “Barchasi shu yerdan va shu ondan boshlanadi!”

Strategiyada belgilangan istiqbolli ilmiy tadqiqot ishlarini jonlantirishning asosiy maqsadi kasbiy kompetentlikka doir ijtimoiy va iqtisodiy talablarni hisobga olgan holda uzluksiz pedagogik ta’limning mazmun va maqsadini yangilashdan iborat. Bu jarayon pedagogning zamonaviy pedagogik me’yorlar sharoitida kasbiy vazifalarini kompetentlik asosida hal etishda, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda, keng dunyoqarash va ma’naviy-axloqiy faoliyatini ilg‘or axborot texnologiyalari bilan yaxlit holda olib borishni taqozo etadi.

Ayonki, pedagogika ilmi ta’limni rivojlantirish, shaxsni shakllantirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va ijtimoiy masalalarni hal etishda muhim o‘rin tutadi. Pedagogika bizga ta’lim, tarbiya hamda rivojlanish jarayonini tushunish va yanada samarali ta’lim tizimini yaratishga yordam beradi. Shularni inobatga olgan holda strategiyada o‘rta va uzoq muddatli asosiy ustuvor vazifalar universitet kengashi tomonidan ustuvorligiga muvofiq tanlab olingan va ular o‘zida xalqaro darajadagi ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi eng samarali ilmiy-ijodiy jamoalarni jamlagan ilmiy-tadqiqot markazlarida amalga oshiriladi.

Mazkur markazlarda pedagogika fan tarmog‘iga tegishli qator zamonaviy masalalar bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, ta’limning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish, inklyuziv pedagogikani yuksaltirish, “Barqaror rivojlanish uchun ta’lim”, “Raqamli jamiyatda ta’lim, “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim”, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bo‘yicha tadqiqotlar qilinyapti.

Ilmiy-tadqiqot markazlari universitetda resurslarni jamlovchi, magistratura va doktorantura darajasida o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi bo‘g‘in hisoblanib, professor-o‘qituvchilarimiz izlanishlarining asosiy qismini mazkur markazlarda olib boradi.

Innovatsion ekotizim universitet ta’lim jarayoni shakllari, usullari, texnologiyalarini muammoli tadqiqotchilik, faol va jamoaviy ta’lim strategiyalari asosida modernizatsiyalash orqali yaratiladi. Bunda ta’lim paradigmasidan ta’limot paradigmasiga o‘tiladi, ya’ni o‘quv rejalarida talabalarning auditoriya, auditoriyadan tashqari va mustaqil ishlashi qayta ko‘rib chiqiladi.

**Oliy pedagogik ta’limda amaliyot jarayoni tubdan yangilanishi kerak. Bizningcha, u birinchi bosqichdan boshlanishi va butun o‘qish davomida uzluksiz, samarador xarakterga ega bo‘lishi lozim. Bunda talabalar nafaqat ta’lim muassasalarida kuzatuvchi sifatida darslarda yoki tarbiyaviy tadbirlarda qatnashishi, balki pedagogik amaliyot uchun baza bo‘lib xizmat qilayotgan maktab, maktabgacha ta’lim va boshqa ta’lim muassasalarining amaldagi o‘quv va tarbiyaviy ishlarida bevosita ishtirok etishi zarur.**

Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyat muhitiga olib kirishning eng samarali mexanizmlaridan biri – volontyorlik. Pedagogik oliy ta’lim muassasalaridagi volontyorlik faoliyati pedagogik amaliyot shakllaridan biri sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, universitet strategiyasida pedagogik amaliyot mexanizmlarini takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratildi.

Strategiyada ta’lim faoliyatini raqamlashtirish orqali sifat va samaradorlikni oshirishga alohida ahamiyat berilgan. Axborot jamiyatida maktabgacha, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini zamonaviylashtirishning ustuvor yo‘nalishi axborot-kommunikatsiya va raqamlashtirish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng tatbiq etishda ko‘zga tashlanadi. Shu bois ham ma’ruzalar, seminarlar, laboratoriya ishlari, talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda raqamli texnologiyalarga tizimli ravishda o‘tish g‘oyat muhim hisoblanadi. Buning uchun ta’limning zamonaviy vositalari bazasida pedagogik yo‘naltirilgan metodik ta’minotni takomillashtirish talab etiladi. Bunda ishlab chiqilayotgan axborot-ta’limiy resurslar o‘quv muassasalarining yagona ta’lim muhitini paydo qilish uchun ularning ochiqligi, tez va qulay shaklda olish mumkinligi va diversifikatsiyasini ta’minlash muhim.

Pedagogik ta’limning sifati “Kimni o‘qitamiz?”, “Nimani o‘qitamiz?”, “Kim o‘qitadi?”, “Qanday o‘qitamiz?” kabi fundamental savollarga aniq va sifatli javob berish bilan ta’minlanadi. Bu borada zamonaviy o‘quv dasturlari, pedagog kadrlarni o‘qitishning yangi texnologiyalari, shuningdek, maktabgacha va maktab ta’limidan boshlab yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashning motivatsion mexanizmlarini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Biz taklif qilayotgan strategiyada bunday mexanizm sifatida “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri” modeli ilgari surilgan. Pedagogik ta’limga raqamlashtirishning yangi mazmuni va texnologiyalarini joriy etish uzluksiz o‘quv zanjirini, ya’ni pedagogik ta’limni klaster modeli asosida tashkil qilishni taqozo etadi. Bu modelda masofaviy texnologiyalar asosiy o‘rinni egallaydi.

Universitetda ilmiy tadqiqot va ta’lim ajralmas holda olib boriladi. Shu munosabat bilan ta’lim va tarbiya nazariyasi, didaktika, pedagogik psixologiya, pedagogika tarixi, ijtimoiy ta’lim, ta’limni boshqarish kabi asosiy fanlararo ilmiy yo‘nalishlar hamda ular bilan bog‘langan ilmiy-tadqiqot markazlari magistrlik va doktorlik dasturlarining intellektual va tashkiliy asosi sifatida xizmat qiladi hamda ularning mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

Strategiyada universitetga yuqori motivatsiyaga ega bo‘lgan abituriyentlarni jalb etish masalasiga alohida o‘rin berilgan. Shu bois ish beruvchilarning faol ishtiroki orqali kasbga yo‘naltirishning turli tadbirlarini o‘z ichiga olgan “Karyera kunlari” maqsadli innovatsion dasturini amalga oshirish yo‘lga qo‘yilgan.

Professor-o‘qituvchilarning ilmiy va metodik salohiyatini oshirish strategiyaning asosiy vazifalaridan biri. Unga asosan, universitetda yuqori malakali ilmiy xodimlar tayyorlash sifatini, zamonaviy psixologik-pedagogik fanlar amaliyoti va dasturlari, uzluksizlik va uzviylik tamoyillari bilan bog‘liq dolzarb muammolarni hisobga olgan holda takomillashtirish orqali yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj ta’minlanadi.

Yuqori malakali ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonini tizimli ravishda amalga oshirish ham asosiy masalalardan. Bu ilmiy tadqiqot ishlarini yuksak darajada takomillashtirish, bakalavr va magistrlarning o‘quv-tadqiqot ishlarini tashkil etish, tayanch doktorant va doktorant tayyorlashning samaradorligini aniq monitoring qilish va sifat nazoratini o‘rnatish, zamonaviy talablarga mos boshqaruv tizimining tarkibiy strukturasini shakllantirishga bevosita bog‘liq.

Pedagogik ta’limni rivojlantirishning muhim sharti o‘quv muassasalarini sifatli tayyorlash uchun barcha turdagi resurslarni takomillashtirish hisoblanadi. Ayni shu shart asosida, ya’ni pedagogik ta’limni resurslar bilan ta’minlashni takomillashtirish orqali universitetda axborot infratuzilmasi yaratiladi. Pedagogik ta’limning moddiy-texnik ta’minotini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, oliy va qo‘shimcha ta’lim muassasalarining o‘quv laboratoriya bazalarini, ularning ijtimoiy-madaniy infratuzilmasini rivojlantirish hisoblanadi. Bu universitetning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi.

Bunda pedagogik ta’limni rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirishda biznes hamkorlarni jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, qo‘shimcha ta’lim, konsultatsiyalar, sport, ko‘ngilochar va o‘quvning boshqa pullik xizmatlarini tashkil etishni taqozo qiluvchi bozor munosabatlariga asoslangan budjetdan tashqari mablag‘larni jalb etishga qaratilgan ko‘p tarmoqli mexanizmlarni kengaytirish ayni muddaodir.

Bugungi kun pedagogikasi jiddiy islohotga muhtoj. Bunda asosiy bo‘g‘in hisoblangan pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ta’lim mazmuni va shakli bilan bog‘liq jiddiy modernizatsion chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Bu borada har bir pedagogik oliy o‘quv muassasasi o‘zining o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyasini ishlab chiqishi, unda pedagogik ta’limni tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar belgilanishi zarur. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, mukammal strategiya taraqqiyot garovidir.

# MANBASINI SURISHTIRMAY MAZASIDAN ROHATLANMANG!



***Bu yil yoz juda issiq keldi. Shunday quyoshli kunlarda issiq taftdan behuzur bo‘lmaslikning bir yo‘li bu – muzqaymoq tanovul qilish. Ushbu rohatijon mahsulot yozning eng sevimli yeguliklaridan biri sanalishi bejiz emas, chunki undagi shirin ta’m va salqinlik kishining issiqdan horigan vujudini tetiklashtiradi.***

## Mushohada

Ayni kunlarda ham ko‘cha-ko‘ylaru do‘konlarda muzqaymoqqa talab yuqori, uning bozori chaqqon. Shu bois mazkur yegulikning turlari ham ko‘payib, ular orasidagi sifat tafovuti yuzaga kelmoqda.

Biz sevib iste’mol qiladigan muzqaymoq, asosan, sut mahsulotidan tayyorlanishi sababli tez o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Shuning uchun ham uni doim sovuq haroratda saqlash talab etiladi. Agar issiqlik ta’sirida muzqaymoq erisa, qaytadan muzlatib, iste’mol qilish mumkin emas. Chunki jarayon davomida mahsulot tarkibi o‘zgarib, bakteriyalarni o‘ziga jalb etish xususiyati ortadi.

Afsuski, bugun ko‘chada noloyiq idishlarda muzqaymoq sotish holatlari kuzatilmoqda. Tabiiyki, bu idishlar muzlatkich imkoniyatlariga ega emas. Shu sababli ichidagi mahsulotni yetarli darajada salqin va sifatli saqlab berolmasligi ham bor gap.

– Bugungi kunda yo‘l-yo‘lakay sotilayotgan muzqaymoqlar ko‘paydi, – deydi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i Juman To‘ychiyev. – Oxirgi paytlarda ana shu mahsulotlardan iste’molchilarning zaharlanish holatlari yuzaga kelmoqda. Ko‘cha-ko‘yda sotilayotgan muzqaymoq solingan aksariyat idishlar sanitariya-gigiyena talablariga javob bermaydi. Bunday plastik idishlarni esa kimyoviy usulda zararsizlantirish imkoniyati ham mavjud emas. Zaharlanish holatlarining oldini olish maqsadida nazorat reyd tadbirlarini olib bormoqdamiz. Mahsulotlardan nazorat tahlili olganimizda ko‘chada sotilayotgan muzqaymoq tarkibida stafilokokk bakteriyasi aniqlandi. Qayd etish joizki, ko‘p hollarda stafilokokk ikkilamchi infeksiyalarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Patogen stafilokokk tushgan sut va sut mahsulotlari – tort, muzqaymoq va boshqa oziq-ovqatlarni iste’mol qilganda kishi zaharlanishi mumkin.

Yo‘l-yo‘lakay sotilayotgan muzqaymoqlarning qachon va qayerda, qanday sharoitda ishlab chiqarilgani, tarkibi, saqlash muddati hamda sharoiti to‘g‘risida hech qanday ma’lumot yo‘q. Shuningdek, bu mahsulotni sotayotgan sotuvchilar maxsus kiyim-bosh kiymagan va ularning tibbiy ko‘rikdan o‘tgani to‘g‘risida maxsus yuritiladigan daftari ham mavjud emas. Talabga ko‘ra maishiy xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar, savdo shoxobchalari va oziq-ovqat mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullanadigan xodimlar har olti oyda tibbiy ko‘rikdan o‘tib turishlari zarur.

Darhaqiqat, issiq taftini oluvchi muzqaymoq xaridi jarayonida aholi mahsulot solingan idishning ichki sanitar holatini ko‘rmasdan iste’mol qilishi mumkin. Shu bois maxsus qadoq va yorliqlarga ega, muzlatkichda saqlanayotgan muzqaymoqni sotib olish maqsadga muvofiq. Unutmaslik kerakki, noma’lum sharoitda tayyorlangan, sifat ko‘rsatkichlari sanitariya talablariga mutlaqo javob bermaydigan mahsulotlar oshqozon-ichak faoliyatini buzib, inson salomatligi bilan bog‘liq noxush holatlarni keltirib chiqaradi.

Tabobat otasi Gippokrat muzlatilgan meva sharbati va qiyomini kayfiyatni ko‘taruvchi hamda organizmni tetiklashtiruvchi mahsulot sifatida tavsiya etgan.

– Muzqaymoq asab va oshqozon-ichak faoliyatining bir maromda kechishida foydali, ammo bu mahsulotni tayyorlashda sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilish juda zaruriy omil, – deydi Toshkent shahar Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi ovqatlanish gigiyenasi bo‘limi mudiri Olim Sultonov. – Avvalo, sut mahsulotining qayerdan olib kelingani, veterinariya ekspertizasidan o‘tib, ma’lumotnomaga ega bo‘lganmi, shuningdek, epidemiologik vaziyati sog‘lom sigirlardan olinganmi, shularga diqqat qaratish darkor. Muzqaymoqni tayyorlaganda, albatta, zarur texnologik jarayonlarga amal qilish, shaxsiy gigiyena qoidalarini qat’iy bajarish shart. Agar ishchi-xodimlar yuqori nafas xastaliklari – tonzillit, gaymorit, stomatit bilan kasallangan bo‘lsa, ularni vaqtinchalik ishdan ozod etib, davolanganidan keyin ishga chiqishiga ruxsat berish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, qo‘lida teri kasalliklari va panaritsiy bo‘lsa, bunday xodimlarni ham ishdan belgilangan tartibda chetlashtirish zarur. Shu bois har bir oziq-ovqat mahsulotini tayyorlaganda xodimlar sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilishlari talab etiladi. Xususan, tozalikni saqlash bo‘yicha ishchilar orasida tez-tez profilaktika tadbirlarini o‘tkazib turish zarur. Tozalik oshqozon-ichak kasalliklarining oldini olishda eng samarali va qulay usuldir.

...1851-yilda amerikalik Jeskob Fassel tomonidan Baltimor shahrida birinchi muzqaymoq ishlab chiqaruvchi zavod qurilgan. O‘shandan buyon o‘tgan 170-yildan ko‘proq vaqt davomida ushbu yegulik tayyorlash usulini takomillashtirish muntazam davom etib kelmoqda. O‘zbekistonda ham muzqaymoqni standartlarga mos ravishda, sifat yorliqlari, ishlab chiqarish ma’lumotlariga ega holda ishlab chiqaradigan zavodlar juda ko‘p. Yurtdoshlarimiz o‘z sog‘lig‘iga e’tiborli bo‘lib, ana shunday joyda ishlab chiqarilgan rohatbaxsh mahsulotlarni iste’mol qilsa, nur ustiga nur. Zero, xalqimiz naql etganidek, salomatlik – tuman boylik. Bu boylikni asrab qolish esa, avvalo, o‘zimizga bog‘liq.

**Elyor HAYDAROV**
**(“Xalq so‘zi”).**

FUTBOL

# “PAXTAKOR” VA “NASAF” JAMOALARINING RAQIBLARI MA’LUM

*Kecha Osiyo futbol konfederatsiyasining yangi musobaqasi – Elit chempionlar ligasining ilk mavsumi uchun qur’a tashlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda qit’aning Sharq va G‘arb mintaqasidan reytingi baland mamlakatlar chempionlari hamda qo‘shimcha yuqori ballarga ega jamoalar qatnashadi. Yurtimiz sharafini mazkur turnirda mamlakat chempioni “Paxtakor” himoya qiladi.*

Vakillarimiz “Al Sadd”, “Al Garafa”, “Al Rayan” (Qatar), “Al Shorta” (Iroq), “Persepolis”, “Istiqlol” (Eron), “Al Vasl”, “Al Ayn” (BAA) kabi jamoalar bilan keyingi bosqichga chiqish uchun kurash olib boradi. Maksim Shaskix murabbiyligidagi “Paxtakor” uchrashuvlarning to‘rttasida safarda to‘p sursa, to‘rt raqibini o‘z maydonida qabul qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston kubogining amaldagi sohibi – Qarshi shahrining “Nasaf” jamoasi Osiyo chempionlar ligasida o‘z ishtiroki bilan g‘oliblik uchun maydonga chiqadi. Ro‘ziqul Berdiyev shogirdlari musobaqaning “D” guruhida “Shabab Al Ahli” (BAA), “Al Husayn” (Iordaniya), “Kuvayt SK” (Kuvayt) kabi jamoalar bilan to‘qnash keladi. Bahslar uy-safar tizimida bo‘lib o‘tadi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Gruziyada o‘tkazilgan “Black Sea Fest” xalqaro festival tanlovida Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabining 11-sinf o‘quvchisi Mirfozil Mirkomilov “Art” nominatsiyasida birinchi o‘rinni egalladi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-842. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-8788

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir T. Eshboyev.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.20 Topshirildi — 23.55 1 2 3 4 5 6